



“ОНА ТИЛИ” FANIDAN DAVLAT TA’LIM STANDARTI VA O‘QUV DASTURLARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYAGA DOIR TALABLAR

Tajbenova S.S.

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: boshlangʻich sinflar ona tili va oʻqish savodxonligi fanini oʻqitish metodikasi, davlat taʼlim standarti, lingvistik kompetensiya, tilshunoslik fanining boʻlimlari: fonetika, leksikologiya, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistika.

Ключевые слова: методика обучения родному языку и грамотности чтения в начальных классах, государственный образовательный стандарт, языковая компетенция, кафедры языкознания: фонетика, лексикология, словосочетание, словообразование, морфология, синтаксис, письмо и орфография, пунктуация, стили речи, стилистика.

Key words: methods of teaching native language and reading literacy in primary school, state educational standard, language competence, departments of linguistics: phonetics, lexicology, collocation, word formation, morphology, syntax, writing and spelling, punctuation, speech styles, stylistics.

Boshlangʻich sinflar onatili va oʻqish savodxonligi fanini oʻqitish metodikasida oʻquvchilarda lingvistik kompetensiyaning qay tarzda shakllanishi, shakllanish jarayoni qanday kechishi xususida aniq bir yechimga kelingani yoʻq. Odatda, mualliflar taʼlim mazmunini oʻzlashtirishga doir umumiy talablar haqida gapiradilar, mavzularni oʻrganish jarayonini kompetensiyalarni hosil qilish sari yoʻnaltirish borasida taklif va tavsiyalar bayon qiladilar. Aslida bunday taklif va tavsiyalar shu kunga qadar BKMLar bilan bogʻliq ravishda bayon qilib kelingan.

Davlat taʼlim standartida belgilanishicha, “Lingvistik kompetensiya – oʻquvchilarda grammatikaga oid oʻzlashtiriladigan bilimlarni (tilshunoslik fanining boʻlimlari: fonetika, leksikologiya, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan



unumli foydalangan holda o'quvchilarning fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olishini shakllantirishdan iborat" [1]. Anglash qiyin emaski, standartda, lingvistik kompetensiya bir tomondan, tilning so'z boyligi, grammatik materiallari nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, ushbu materiallar zamirida nutq o'stirish yotadi, deb e'tirof etilgan.

Odatda, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallanadigan BKMLar til birliklari, termin, ta'rif, tasnif, tavsif, qoidadan iborat qilib til sathlari bo'yicha aniq belgilab kelingan. Aynan ushbu ta'lim mazmunini lingvistik kompetensiyani shakllantirish mazmuni deb atash qanchalik to'g'ri ekanligi munozaralidir. Bizningcha, BKMLar tarkibiga kirgan til hodisalarining hammasini emas, balki, asosan, qoidalar (ba'zan tavsiflar) bilan tushuntirish ehtiyoji mavjud bo'lganlarini lingvistik kompetensiya mazmuni sifatida belgilab chiqish zarur. Tabiiyki, ayrim qoidalar termin ishtirokisiz tuzilmaydi. Masalan, fonetikani o'rganish jarayoni terminlarsiz deyarli amalga oshmaydi. Shuni ham unutmaslik kerakki, affiksallarda ayrim qoidalar imkoniyatga qarab qo'shimchalarga tayangan holda berilishi ham mumkin.

2017 yilgi "Ona tili o'quv fanidan tasdiqlangan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi"da ikki xil kompetensiyadan (nutqiy kompetensiya va lingvistik kompetensiya) tashqari, quyidagi tayanch kompetensiyalar ham o'z ifodasini topdi: TK1 – kommunikativ kompetensiya; TK2 – axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi; TK3 – o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi; TK4 – ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; TK5 – milliy va umummadaniy kompetensiya; TK6 – matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi [2]. Umumlashtirib aytganda, "Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat".

"Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti"da belgilangan nutqiy kompetensiya xorij metodist olimlari tavsiflagan lingvistik kompetensiyaga, lingvistik kompetensiya tavsifi esa til kompetensiyasiga o'xshash mazmunda belgilanadi. Bunga "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi" ham ishora qiladi:

o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv



va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantrishdan iborat [3].

Tabiiyki, ushbu hujjatlarda har bir o‘quvchida lingvistik kompetentlikni shakllantirish alohida maqsad qilib ko‘rsatilmagan, chunki ta‘lim natijasida yuzaga keladigan ushbu sifat darajasi lingvistik kompetensiya ustidagi ishlar mahsuli sifatida hosil bo‘lishi nazarda tutilgan, xolos.

2020 yili «Ona tili o‘quv fanidan milliy o‘quv dasturi» loyihasi e‘lon qilindi, so‘ng 2022/2023 o‘quv yili uchun qayta ko‘rib chiqilgan varianti tarqatildi. Ushbu “Umumiy o‘rta ta‘limning milliy o‘quv dasturi”da [4] ona tilidan belgilab chiqilgan malaka talablariga ko‘ra nutqiy kompetensiyalarga faqat kommunikativ jihatlar kiritildi, til birliklari esa lingvistik bilimlar (kompetensiyalar) ruknida aks ettirildi.

“Maktab bitiruvchilarida til va adabiyot fanlari bo‘yicha rivojlantiriladigan umumiy kompetensiyalar (umumiy o‘rta ta‘lim bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar)” da “Lingvistik kompetensiyalar” bo‘yicha boshlang‘ich maktabning 4-sinfini bitiruvchi o‘quvchisiga qo‘yilgan talablar [4]:

fonetikadan nutq tovushlarining ma‘no farqlash vazifasini anglash va izohlay olishi, fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashishi) ni bilish va izohlay olishi, ohang va urg‘uni bilish va qo‘llay olishi talab etiladi.

Bular o‘quvchilarda fonetikaga doir bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lganidan dalolat berishi mumkin, lekin ularning lingvistik kompetensiya darajasiga unchalik dahli yo‘q, chunki ma‘no farqini anglash va izohlash, so‘zlarda tovush almashinayotganini bilish va izohlash, ohang va urg‘uni bilish, qo‘llay olish til egalarining amaliy nutqida bor, deyarli xato qilinmaydigan bilim va malakalarning ongliligini oshiradi, xolos.

Imlo me‘yorlaridan harflar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish, asos va qo‘shimchalar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish, so‘zlarni qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish hamda ko‘chirish qoidalariga amal qilish belgilangan.

Imlo bilan bog‘liq qoidalar lingvistik kompetensiya darajasida egallanishi lozim bo‘lgan bilimlar hisoblanadi.

Leksikologiya bo‘yicha sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunish va to‘g‘ri qo‘llay olish, omonim, paronimlarni farqlash, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish, so‘zning ko‘p ma‘noliligi, bosh va ko‘chma manolarni farqlash, ko‘chma ma‘noni hosil qiluvchi birliklarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish



degan malaka talablari o‘z ifodasini topgan. Bu yerda ko‘rsatilgan bilimlar ko‘proq yuqori sinflar uchun mo‘ljallanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari sinonim so‘zlardan qay biri so‘zlashuv uslubida qo‘llanishi, qay birlarini bu usulbdagi nutqda qo‘llamaslik kerakligini amaliy bilishlari lozim, chunki ularga bunday mazmundagi nazariy ma‘lumotlar berilmaydi.

Morfologiya qismidagi talablar quyidagilardan iborat: so‘zni tarkibiy qismlarga ajratish, asos va qo‘shimchani, tub va yasama so‘zlarni farqlash; qo‘shimchalarning shakldosh, ma‘nodosh, zid ma‘noliligini bilish, nutqida qo‘llay olish; mustaqil so‘z turkumlari (fe‘l, ot, sifat, son, ravish, olmosh), ularning ma‘no turlarini o‘zaro farqlash, uslubiy xususiyatlarini tushunish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish; yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama)ni o‘zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llash; alohida so‘z turkumlari (modal, taqlid va undov so‘zlar ni o‘zaro farqlash, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to‘g‘ri qo‘llash; tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari morfologik shakllar talaffuzi va imlosidagina xatolarga yo‘l qo‘yadilar, ularning qo‘llanishi bilan bog‘liq xatolar kamroq uchraydi. Talaffuz va imlo xatolarini tuzatish uchun talaffuz va imlo qoidalari o‘zlashtirilishi zarur bo‘lsa, qo‘llashga, gapda so‘z tartibiga doir xatolar so‘z turkumlarini farqlashga doir bilimlar asosida tuzatiladi. Lekin boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarining uslubiy xususiyatlari deyarli o‘rganilmaydi.

Sintaksis qismidagi talablar: so‘z birikmasi, gap va uning turlarini farqlay olish va nutqida to‘g‘ri qo‘llash; gap bo‘laklarining o‘zaro bog‘liqligini, tartibini tushunish va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish; sintaktik birliklarni farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish; tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash.

Sintaksisga doir bilimlar amaliyotni yetarlicha nazarda tutmaydi: o‘quvchilar so‘z birikmalari tuza oladilar, darak, so‘roq va buyruq gaplarni to‘g‘ri tuzadilar, gapda so‘zlarni o‘zaro bog‘laydilar.

Umuman, boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallab ishlab chiqilgan malaka talablari, birinchidan, o‘quvchilarning bilimi, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanishi kerak, ikkinchidan, o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar, bolalar nutqida uchraydigan turg‘un xatolar hisobga olinishi lozim.

Bizningcha, “qo‘llay olish” ifodasi lingvistik kompetensiyaga ishora qilmaydi. “To‘g‘ri qo‘llay olish” uchun qoidani bilish zarur: ayni qoidalarni o‘zlashtirish natijasida lingvistik kompetensiya (har bir o‘quvchiga nisbatan lingvistik kompetentlilik) shakllanadi. «Izohlay olish» ifodasi bevosita qoidani o‘zlashtirish bilan bog‘lanadi.

“Ona tili fani milliy o‘quv dasturi” da 1–3-sinflar bo‘yicha belgilangan “Umumiy o‘rta ta‘lim o‘quvchisiga ona tili fanidan qo‘yiladigan talablar” [4] ning “Lingvistik ko‘nikmalar” ruknida bayon qilingan talablar lingvistik kompetensiyalar emas. Masalan, tovushlarni taniydi, ularni harflarga moslashtira oladi, tovushlarni qo‘shib so‘z hosil qila oladi, tovushlar joylashuvini o‘zgartirib yoki tovushni olib tashlab yangi so‘z hosil qila oladi; bo‘g‘inlarni taniydi, ularni qo‘shib so‘zlarni talaffuz qila oladi, bo‘g‘inlarni birlashtirib, joylashuvini o‘zgartirib yoki bo‘g‘inni olib tashlab yangi so‘z hosil qila oladi (1-sinf); sinf darajasiga mos og‘zaki va yozma matnlardagi so‘z birikmasi, notanish so‘z, iboralarning ma‘nosini berilgan kalit so‘zlar orqali aniqlaydi, ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llaydi; gaplardagi birinchi so‘zlar hamda ismlarni bosh harf bilan yoza oladi (2-sinf); sinf darajasiga mos matn hamda so‘zlarda bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini amalda qo‘llay oladi; sinf darajasiga mos matnlarda ot, sifat, fe‘l, olmosh, sonlarni aniqlaydi hamda ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llay oladi (3-sinf) kabi. Bular ma‘lum darajada filologik bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarga yaqin turadi. Shunday bo‘lgach, ushbu bilim va malakalarning lingvistik deb atalishini o‘ylab ko‘rish lozim. Buning ustiga ular BKM o‘rnida lingvistik kompetensiya tushunilayotganidan dalolat beradi.

Ko‘rinadiki, malaka talablarida asosan o‘quvchilar nutqini o‘stirishning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari tavsiflangan. Lekin, afsuski, bu talablar ona tilidan o‘rganiladigan nazariy tushunchalar, til hodisalarining nutqda qo‘llanish darajasini ifoda etmaydi. Bizningcha, filologik yo‘nalishdagi ma‘lumotlar ustida ishlash lingvistik kompetensiya va lingvistik kompetentlilikni shakllantirish jarayoniga ishora qilmaydi. Zero, talaffuz va imlo qoidalari, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish, qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llash, gaplarni to‘g‘ri tuzish, matn yaratish qoidalari asli ko‘nikma va malakalarni hosil qilish jarayoni bo‘lib, dastlabki bosqichda oxirigacha shakllanib ulgurmaydi. Bu degan so‘z qoidalarni faollashtirish bilan bog‘liq navbatdagi bosqich bo‘lishi zarur.

Nutqiy kompetensiya BKMLarning shakllanish darajasida nutqiy favoliyat turlari bilan bog‘liq ta‘lim mazmunidagi ishlarni taqozo etadi, ya‘ni ushbu kompetensiyani shakllantirish ustidagi ishlar yo lingvistik kompetensiya bilan parallel ravishda, yoki undan keyingi alohida bosqichda amalga oshiriladi. Grammatik bilimlarning yuqori darajada egallangan bo‘lishini talab qiladigan holatlarda avval lingvistik kompetensiya, keyin til hodisalari bo‘yicha tegishli bilimlarning hosil bo‘lishiga qarab nutqiy kompetensiya ustidagi ishlar tashkil etiladi. Grammatik bilimlarni talab qilmaydigan holatlarda esa nutq o‘stirish ishlari muxtor yo‘nalish sifatida amalga oshirilaveradi.



Umuman, o‘quv dasturida ta‘kidlanganidek, ko‘nikma hosil bo‘lgandan keyin o‘zlashtirish, amalda qo‘llash ko‘nikma va malakalaridan yuqori turuvchi holat: layoqat yoki qobiliyat, ta‘limning pirovard natijasi, mahsulidir. Bu yerda aytilayotgan fikr (layoqat, qobiliyat) lingvistik kompetentlikdan boshqa narsa emas. Demak, ona tilidan olgan bilimlar asosida o‘z nutqiga va boshqalarning nutqiga baho berish, xatolarni tuzatishga doir maslahat bera olishga layoqatlilik ta‘lim mazmunining asosiy maqsadiga aylanmog‘i lozim.

Adabiyotlar:

1. Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимнинг давлат таълим стандартини тасдиqlаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017 йил 14 (774)-сон, 230-модда.

2. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili. Adabiyot (5–9-sinf). O‘zbek tili. – Toshkent, 2017. – 18–22-betlar.; Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимнинг умумтаълим фанлари бўйича малака талаблари: «Ona tili fani» бўлими // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти» (2017 йил 6 апрель) Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами», 2017. – 140–143-бетлар.

3. Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти: // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. 2017. – 140–141-бетлар.

4. Ona tili fani milliy o‘quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022–2023 o‘quv yili uchun. 2022. – 7–10-betlar. (138 bet)

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada “Ona tili” fanidan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlarida lingvistik kompetensiyaga doir talablar yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены требования к языковой компетентности в государственном образовательном стандарте и учебной программе по предмету «Родной язык».

SUMMARY

This article highlights the requirements for linguistic competence in the state educational standard and curriculum in the subject “Native Language”.